

## Referendum O‘Tkazish Tartibi

*Hayitov Sherzod Raxmatullayevich<sup>1</sup>, Xayitmurodov Baxtiyor Elmurod o‘g‘li<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Referendum o‘tkazish tartibi - bu fuqarolarga muayyan bir taklif, masala yoki qaror bo‘yicha ovoz berish imkonini beruvchi to‘g‘ridan to‘g‘ri demokratiya shaklidir. Referendumni o‘tkazish tartibi turli davlatlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ammo odatda bir nechta umumiy tartib-qoidalar mavjud. Ushbu maqolada biz referendum o‘tkazish tartibi jarayonining asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar:** Referendum, taklif, masala, mamalakat, imzo, qonun, huquq, rasmiy, demokratiya, saylov.

Referendum o‘tkazish tartibi bilan jamiyatimizdagi har bir shaxsning fikriga e‘tibor beriladi va ularni hammasi muhim qarorlarni qabul qilishda birlashadilar. Referendum bu fuqarolarning davlat, viloyat yoki mahalliy ko‘lamda eng muhim masalalar bo‘yicha ovoz berish yo‘li orqali o‘z fikrlarini bevosita bildirishidir. Referendum davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli hisoblanadi. Quyida biz ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan masala saylov tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liq. Referendum o‘tkazish tartibining saylovdan farqi shundaki, referendum o‘tkazilayotganda biror-bir lavozimga nomzod uchun ovoz berilmaydi, balki jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari referendumga qo‘yiladi va referendumni o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi. [1] Buning huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining referendum to‘g‘risida” gi qonunida keltirib o‘tilgan. Saylov o‘tkazish tartibi, uning asoslari hamda o‘tkazish muddatlari esa O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi bilan tartibga solinadi. [2].

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, referendum o‘tkazish tartibi turli davlatlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, romana-german va anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda. Quyida referendum o‘tkazish tartibi bo‘yicha romana-german va anglo-sakson huquq oilasidagi farqlarni tahlil qilishga harakat qilamiz:

1. Romana-german huquqiy tizimlarida referendum bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya shakli bo‘lib, fuqarolardan ma‘lum bir siyosiy masalalar yoki qonun bo‘yicha ovoz berishlari so‘raladi. Referendum o‘tkazish tartibi mamlakatga qarab farq qiladi, lekin odatda, ovoz berish uchun aholining ma‘lum bir foizidan imzo to‘planishini o‘z ichiga oladi. Keyin referendum masalasi butun ovoz beruvchi aholiga qo‘yiladi va natija ko‘pchilik ovoz bilan aniqlanadi.
2. Anglo-sakson mamlakatlarida referendum o‘tkazish tartibi romana-german mamlakatlaridagi referendum o‘tkazish tartibiga o‘xshash, biroq ayrim farqlari mavjud. Masalan taqqoslash uchun: anglo-sakson mamlakatlaridan Buyuk Biritaniya, romana-german mamlakatlaridan esa O‘zbekistonni olsak. Buyuk Biritaniyada referendumdan foydalanish nisbatan kam uchraydi va referendum o‘tkazishning rasmiy tartibi yo‘q. [3] Buning o‘rniga, referendum o‘sha davr hukumati yoki parlament tomonidan chaqiriladi. So‘ngra butun ovoz berish huquqiga ega aholining ko‘pchilik ovozi bilan aniqlanadi. Umuman olganda, referendumni o‘tkazish tartibi mamlakatga qarab farq qiladi, lekin asosiy tamoyili bir xil: fuqarolardan ma‘lum bir siyosat yoki qonun bo‘yicha ovoz berish so‘raladi va natijada ko‘pchilik ovozi bilan belgilanadi.

<sup>1</sup>Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida dotsent v.b

<sup>2</sup>Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy-odil sudlov fakulteti talabas



Yuqorida keltirib o‘tilgan farqlarning huquqiy asosini misollar bilan isbotlab bermoqchiman. Ya’ni misol uchun romana-german huquq oilasidan O‘zbekistonni va anglo-sakson huquq oilasidan Amerika Qo‘shma Shtatlarini olsak, bu mamlakat bilan ham referendum o‘tkazish tartibi o‘rtasida bir qancha asosiy farqlar mavjud:

1. **Huquqiy asos:** O‘zbekiston Respublikasida referendum o‘tkazishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Referendum to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida belgilangan. Qo‘shma Shtatlarda esa referendum o‘tkazishning huquqiy asoslari Shtatlarga qarab farq qiladi va bu davlatda ham jarayonni tartibga soluvchi federal qonun yo‘q.[4]
2. **Ovoz berish jarayoni:** O‘zbekistonda referendum ma’lum bir sanada o‘tkaziladi va ovoz beruvchilarsaylov uchastkasida shaxsan o‘z ovozlari berishlari shart. Qo‘shma Shtatlarda ovoz beruvchilar referendum kuni shaxsan o‘zi yoki pochta orqali ovoz berishlari mumkin.

Quyida O‘zbekiston Respublikasida referendum o‘tkazish tartibini yanada aniqlashtirib o‘tmoqchiman. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, referendum O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning o‘z xohish-irodasini umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bildirishi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi.[5] Referendum referendumga tayyorgarlik, uni o‘tkazish va natijalarni tahlil qilib yakuniy xulosa chiqarish bosqichlaridan iborat. Dastlab referendumga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida davlat organlari va fuqarolar yetarli darajada xatti-harakatlarni amalga oshiradilar. Agar referendum o‘tkazish fuqarolar tashabbusi bilan tashkil qilinsa, bu bosqich ham referendum o‘tkazish jarayoniga taalluqli bo‘ladi. Referendum o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlisning tayinlashi bilan amalga oshiriladi. Referendum o‘tkazish komissiyalari, uchastkalari tashkil qilinadi. Shu uchastkalar orqali fuqarolar o‘zining xohish-irodasini namoyon qilishadi. Oxirida so‘nggi natijalar har taraflama tahlil qilinadi hamda yakuniy xulosaga kelinadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan qoidalar O‘zbekiston Respublikasida referendum o‘tkazishning umumiy qoidalari hisoblanadi.

Romano-german va anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda referendum o‘tkazish tartiblari o‘zaro farq qiladi. Buni isboti sifatida Yevropa ittifoqi (ya’ni ushbu holatda hukumatlararo tashkilot nazarda tutilmoqda) hamda Rossiya Federatsiyasi misolida ko‘rib chiqamiz. Yevropa ittifoqi Yevropa davlatlari a‘zoligiga asoslanganligi hamda anglo-sakson huquq oilasi qoidalari qo‘llanilayotganligi sababli bunda referendum o‘tkazish bilan bog‘liq ayrim qoidalarni tahlil qilmoqchiman.

Rossiya Federatsiyasida referendum o‘tkazishning alohida qoidalari mavjud. Ushbu davlatda parlament referendum o‘tkazish imkoniyatini amalga oshiradigan tashkiliy tuzilma hisoblanadi. [6]. Referendum asosida qonunchilik hujjatlari qabul qilinishi hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin. Bu qoida federal va mintaqaviy doirada amal qiladi. Ya’ni bu qoida Rossiyada referendum o‘tkazishning umumiy sxemasi mavjudligi, turli komissiya va uchastkalarining tashkil etilganligi bilan asoslanadi.[7]. Bu qoida Rossiya Federatsiyasining 2002-yil 12-iyunda qabul qilingan qonunida mustahkamlab qo‘yilgan. Shu qonun mintaqaviy referendum o‘tkazilishini ham tartibga soladi. Referendum jarayoni oldindan tayyorgarlik ko‘rilmasdan turib amalga oshirilmaydi, ammo ayrim holatlarda istisno hollari mavjud. Masalan, referendum muhokamasini parlamentda o‘tkazishda ortiqcha huquqiy tayyorgarliklar talab etilmaydi. Shuningdek, referendum o‘tkazishda demokratizm prinsipiga ham qat’iy amal qilinadi. Ya’ni ozchilikning fikrlari ham yuqori darajada inobatga olinadi. Xullas, Rossiya Federatsiyasi romano-german huquq oilasiga mansubligi sababli bunda ham yuqorida keltirib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qoidalari o‘xshash. Ammo ikki davlatning xususiyatlarini tahlil qilganimda Rossiya davlatida referendum o‘tkazishda qo‘llanadigan bir usul mening e’tiborimni tortdi. Rossiyada referendum o‘tkazishda “Saylov texnologiyalari” degan usul qo‘llaniladi. [8]. Ya’ni referendum o‘tkazishda subyektlar referendum o‘tkazishning texnik xususiyatlariga e’tibor qaratishadi. Bu texnik xususiyatlarga e’tibor qaratish muvaffaqiyatga erishishni osonlashtirishi mumkin. Masalan, vaqt, savollarning ketma-ketligi hamda bir-biriga o‘xshashligi yuqorida darajada inobatga olinadi. Bu tizim natijani ham hisoblashda katta ahamiyatga ega.



Referendum o'tkazish tartib-qoidalari Yevropa ittifoqida ham o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega. Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlar takliflari asosida referendum o'tkazish qoidalari muyyan darajada ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa ittifoqi kontekstida milliy referendumlar o'tkazilishi. Ammo shuni aytish mumkinki, umumyevropa referendumini o'tkazish ittifoqning qoidalari asosida tartibga solinmaydi. [9]. Ushbu holatda biz Ittifoq doirasida amalga oshiriladigan referendum maqsadining ham boshqa huquq oilasiga mansub davlatlarnikidan farqli jihatini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni referendumning asosiy maqsadi ittifoq doirasida bo'lgan muhim muammolarga yechim topish hisoblanadi. Ammo bu holat romano-german huquq oilasiga mansub davlatlarda ozgina farq qiladi.

Yuqorida Yevropa ittifoqi, Rossiya Federatsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi davlatlarida referendum o'tkazish tartib-qoidalari va uning o'ziga xos ayrim jihatlarini keltirib o'tildi. Ammo bu jihatlar bu davlatlarda referendum ko'p o'tkaziladi degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Shu holatda yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, romano-german va anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda referendum o'tkazishda hudud masalasi ham turlicha talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, referendum o'tkazish tartibi masalasi taklif qilishdan tortib, taklifni amalga oshirishgacha bo'lgan bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi. Yuqorida referendum o'tkazish tartibi bo'yicha anglo-sakson va romano-german huquq oilalarini ayrim mamlakatlar misolida taqqosladik, shunda anglo-sakson va romana-german huquq oilalarida farqlar va o'xshash jihatlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. O'zbekistonda referendum o'tkazish tartibida ovoz beruvchilar saylov uchastkalariga borib shaxsan o'zi, ya'ni bevosita qatnashadilar. Bu kabi holatlarni hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi kunda bevosita referendumni o'tkazish bilan bog'liq ba'zi muammolarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, ovoz berishda qonuniylik prinsipiga amal qilinmasligi, ovozlar sonini noqonuniy qo'shib hisoblash va shu kabi ba'zi bir masalalar. Xalqaro tajribalarni tadqiqotlar bo'yicha o'rganish natijasida shunga amin bo'ldimki, ba'zi chet el davlatlarida referendumda ovoz berish elektron tarzda bo'ladi. Bu hol shu davlatlarining kompyuter texnologiyalari yaxshi rivojlanganligidan ham dalolat beradi. Men shularni hisobga olib shuni taklif qila olamanki, O'zbekistonda ham ovoz berishni hamda ovozlarni hisoblab chiqishni elektron tarzda amalga oshirishni joriy etadigan bo'lsak qonuniylik hamda adololatlik prinsiplariga amal qilingan bo'lar edi. Elektron tarzda amalga oshirishning har taraflama kafolatlarini mustahkam qilish yuzasidan ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu holat bilan bog'liq yana bitta taklif rossiyalik mutaxassislar tomonidan ilgari surilgan edi. Ya'ni natijada "Saylov texnologiyalari" usulini Rossiya davlati o'zining yurisdiksiyasiga qabul qilgan. Shu kabi texnologiyalarni tizimli tahlil qilib, atroflicha o'rganish orqali O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga kiritilishi, mening fikrimcha, bir qator muammolarning kelib chiqishini oldini olishi mumkin.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida" gi qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan "On the Referendum of the Republic of Uzbekistan") <https://lex.uz/docs/-81253>
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi (Election Code of the Republic of Uzbekistan ) <https://lex.uz/docs/-4386848?otherlang=1>
3. Buyuk Britaniyada referendum o'tkazilishi masalalari <https://www.parliament.uk/site-information/glossary/referendum/>
4. Missouri universiteti tomonidan e'tirof etilgan qoida <https://scholarship.law.missouri.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1411&context=facpubs>
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida" gi qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan "On the Referendum of the Republic of Uzbekistan") <https://lex.uz/docs/-81253>
6. Анисимова Е.А. — Референдумный законодательный процесс субъектов Российской Федерации // Юридические исследования. – 2022, 27-29 с.



7. Воробьева Е. И. Институт референдума в России: проблемы реализации // Развитие общественных наук российскими студентами. – 2017, 94-100 с.
8. Анисимова Е.А. — Референдумный законодательный процесс субъектов Российской Федерации // Юридические исследования. – 2022, 27-29 с.
9. Евгений А. Иуков —Референдумы в Европе: инструмент участия граждан или карнавальный аксессуар?. – 2018, 1-3 с.

